



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 5 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>Kalenov K.T.</i>	22

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshv Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI

Kalenov K.T.

Qoraqalpog' davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligini tashkil etishning zamonaviy sharoitida ushbu sohani rivojlantirish va moliyalashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Ushbu sohaga xos risklarni sug'urta vositasida kafolatlash orqali sohaning barqarorligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar, xulosalar shakllantirilgan. Mamlakatimiz agrar sohasida sug'urta tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ob'ektiv muammo va qiyinchiliklar tahlil qilingan. Agrar sektordagi sug'urtaning eng dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega yo'nalishlari alohida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta kompaniyalari, sug'urta polislar, ommaviy axborot vositalari, agrosanoat majmuasi, qishloq xo'jaligi, xavf-xatarlarni sug'urtalash, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, fuqarolik qonunchiligi.

Abstract: This article examines and analyzes the current issues of development and financing of this area in the modern conditions of the Organization of Agriculture of Uzbekistan. Proposals and recommendations, conclusions are formulated to ensure the stability of the industry by guaranteeing the risks inherent in this area through insurance. In the agrarian sector of our country, objective problems and difficulties are analyzed that prevent the development of the insurance system. The most relevant and vital areas of insurance in the agrarian sector are considered separately.

Keywords: Insurance, insurance companies, insurance policies, mass media, agro-industrial complex, agriculture, risk insurance, policyholders, insurers, civil law.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются и анализируются актуальные вопросы развития и финансирования сельского хозяйства Узбекистана в современных условиях. Сформулированы предложения и рекомендации, выводы по обеспечению стабильности отрасли путем гарантирования рисков, присущих данной сфере, посредством страхования. Анализируются объективные проблемы и трудности, препятствующие развитию системы агрострахования в аграрном секторе Узбекистана. Отдельно рассматриваются наиболее актуальные и жизненно важные направления страхования в аграрном секторе.

Ключевые слова: страхование, страховые компании, страховые полисы, масс медиа, аграрно-промышленный комплекс, сельское хозяйство, страхование рисков, страхователи, страховщиков, гражданское законодательство.

Kirish (Introduction/Введение).

Qishloq xo'jaligi dunyoning ko'pgina mamlakatlari, xususan O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biridir. U aholini to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish mumkin bo'lgan meva-sabzavot va go'sht mahsulotlari hamda oziq-ovqat va turli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan xomashyo bilan ta'minlaydi. Biroq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosan ochiq xavoda amalga oshirilganligi uchun, boshqa har qanday sohalarga nisbatan tabiat hodisalari natijasida yuz beradigan turli xavf-xatarlarga beriluvchan bo'ladi hamda qishloq xo'jaligi hayvonlari va o'simliklar kasalliklari tez-tez uchrab turadi. Shu bilan birga, barcha sohalarga xos bo'lgan, mahsulot narxlarining o'zgarishi, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi kabi boshqa omillar natijasida ham zararlar yuzaga keladi. Shu bois agrar soha uchun sug'urta xizmatlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilar sabab, qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlarini rivojlantirish ushbu soha barqarorligini oshirish sari muhim qadam bo'lib hisoblanadi. Buning uchun xavf-xatarlar bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida va sifatli hal qilish zarur.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad qishloq xo'jaligini sug'urtalash bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning samarali va ta'sirchan usullaridan biri — sug'urta tizimini tahlil qilingan. Agrar sektor rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolar tahlili asosida va

sug'urta sohasidagi dolzarb yo'nalishlarni hisobga olgan holda ushbu sohadagi muammolarni hal etish usullari taklif qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini sug'urtalash sohasi iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda sug'urtaning qishloq xo'jaligidagi roli asosan tavakkalchiliklarni kamaytirish, investisiya jozibadorligini oshirish va fermer xo'jaliklarini barqaror daromad bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

O'zbekiston tadqiqotchilari orasida M. Alimov o'zining "Qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari" nomli ishida agrar sug'urtaning milliy modelini yaratish, majburiy sug'urta elementlarini joriy etish va davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish zarurligini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, N. Abdurashidov "O'zbekistonda qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari" maqolasida fermerlar o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish va huquqiy baza mustahkamlash zarurligini qayd etadi [2].

Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida esa agrar sug'urtaga nisbatan tizimli va makroiqtisodiy yondashuv ustun. Masalan, Hazell va Varangis "Agricultural insurance in developing countries: The role of governments and markets" nomli ishida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat tomonidan subsidiyalangan sug'urta modellari ijtimoiy samaradorlikni oshirishda muhim ekanini ko'rsatgan [3]. Mahul va Stutley tomonidan tayyorlangan Jahon bankining "Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries" hisobotida

indeks asosidagi sug'urta modellarining afzalliklari — tezkor to'lovlar va ma'muriy xarajatlarning kamayishi — tahlil etilgan [4].

Evropa va AQSh tajribasini o'rgangan OECD hisobotida raqamli texnologiyalar, masalan sputnik ma'lumotlari va big data tahlili, agrar sug'urtada xatarlarni aniq baholash hamda avtomatlashtirilgan to'lov tizimini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan [5]. Turkiya va Xitoy tajribasini tahlil qilgan Gong va kul. esa davlat-xususiy hamkorligiga asoslangan modellar qishloq xo'jaligida sug'urta qamrovini oshirishda samarali natija berganini qayd etadi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini sug'urtalashning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: institutsional muhitning barqarorligi, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, va fermerlar o'rtasida sug'urta savodxonligining yuqori bo'lishi. Milliy va xorijiy olimlar umumiy xulosa sifatida qishloq xo'jaligi sug'urtasi barqaror agrar siyosatning ajralmas qismi ekanini ta'kidlaydilar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты).

Qishloq xo'jaligi va so'nggi yillarda tobora hajmi kengayib borayotgan agrar-sanoat majmuasi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, ushbu sohada etishtirilayotgan mahsulotlar mamlakat eksport salohiyatining katta qismini tashkil etib bormoqda. Qishloq xo'jaligi nafaqat mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, balki iqtisodiyotning boshqa sohalarini xom-ashyo bilan ta'minlashdek muhim vazifani ham bajaradi.

O'zbekistondagi mavjud keskin kontinental iqlim va tobora kuchayib borayotgan suv tanqisligi so'nggi yillarda dunyo miqyosida kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari natijasida yuz berayotgan tabiatdagi kutilmagan hodisalar qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Erta muzlash, bo'ron, ekologik falokatlardan, qurg'oqchilik, turli xil hashorotlar hujumi va jahondagi iqtisodiy beqarorlik rejalashtirilgan hosil hajmini xavf ostiga qo'yadi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi korxonalarini xavfni boshqarish yo'llarini izlab topishi shart va bunday yo'lni signalgan turit sug'urta hisoblanadi.

Ammo O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bugungi kun talablari darajasida emasligini dunyo mamlakatlari bilan taqqoslagandi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sug'urtasida jiddiy pasayish yuz berganligini ko'rish mumkin. Chunki uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligining yagona sug'urtalovchisi bo'lib kelgan O'zagsug'urta aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining sug'urta sohasidagi biznes rejalarini birmuncha o'zgardi, ya'ni kompaniya qishloq xo'jaligi sug'urtasidan o'zini tortdi va boshqa sug'urta turlarini asosiy faoliyat yo'nalishi sifatida tanladi. Natijada mamlakatda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq risklar, xususan ekinlar hosili bilan bog'liq risklar asosan sug'urtalanmay qoldi.

Shu borada O'zagsug'urta kompaniyasining so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha faoliyatining pasayishini quyidagi ko'rsatkichlardan ko'rish mumkin:

2017 yilda kompaniya tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 6,4 mln. evroni tashkil etib, berilgan sug'urta polislar soni 109 tani tashkil etgan;

2018-2019 yillarda agrosug'urta bozorida berilgan polislar soni keskin kamaygan;

2020 yilda O'zagsug'urta tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 563,5 mlrd. so'mmi tashkil etgan;

2021 yilda kompaniyaning ekinlar sug'urtasi portfelida jami sug'urta mukofotlari 1,9 mln. evroni tashkil etib, yil oxiriga amaldagi sug'urta polislar soni 178 tani tashkil etgan.

Qishloq xo'jaligi O'zbekistonda milliy YaIMning ~24.3% ini tashkil etadi va mehnat quvvatida ~26%ni band qilgan. 2024 yilda meva -va -rezavor mahsulotlar bozorida bir million tonnadan ortiq meva chetga eksport qilingan [7]. 2023 yilda bog'lar va uzumzorlarda muzlaganidan zarar ko'rgan erlar jami taxminan 13 000 gektarni tashkil etib, shundan 9 000 gektari bog'lar va 4 000 gektar uzumzorlardan iborat bo'lgan. Buning natijasida 207 000 tonna mmahsulotlar zarar ko'rgan [8].

Yuqorida keltirilgan ekin maydonlarining sug'urtalanganligi, bu bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari va hodisa bo'yicha to'lab

berilgan qoplamalar to'g'risida aniq statistik ma'lumotlar e'lon qilinmagan bo'lib, faqat ijobiy holat sifatida 2025 yilda bog'dorchilik ekinlarini muzlashdan himoyalaydigan maxsus sug'urta mahsulotlari (shamol, mazur - shamol zarari kabi) 5 ta viloyatda joriy etilmoqda. Hukumat sug'urta turlari uchun sug'urta mukofotining 50% ini subsidiyalashni amalga oshirmoqda [9]. Shu yo'nalishdagi ma'lumotlar etarli emas va mavjudlari bo'yicha taqqoslanganda sug'urta kompaniyalari, bozor ishtirokchilari va davlat organlari tomonidan berilayotgan ma'lumotlar bir-biri bilan mos kelmaydi va detallashganlik darajasi past.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi borasidagi muammolarga yanada aniqroq to'xtaladigan bo'lsak, ushbu muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Agrar ishlab chiqaruvchilarning sug'urta imkoniyatlari haqida xabardorlik darajasi pastligi. Ko'pgina fermerlar sug'urta sohasini yaxshi tushunmaydi va bu boradagi huquqiy bilimlari etarli emas.

2. Ko'plab dunyo mamlakatlarida amal qiladigan davlat sug'urta dasturlari mavjud emas, sug'urta sohasidagi ba'zi yo'nalishlar bo'yicha taqdim etilgan sug'urtaviy imtiyozlardan xabardor emas (masalan eksport qilinadigan meva-sabzavot eksporti bo'yicha sug'urta mukofotlarining bir qismini davlat mablag'lari hisobidan to'lab berish) bilmaydilar va qaysi xavflar sug'urta bilan qoplanishini tushunmaydilar. Bu bilim etishmasligi hosil yo'qotish va oziq-ovqat narxlarining oshishiga olib keladi. Shu bois ommaviy axborot vositalari orqali agrar soha xodimlarini yaxshi xabardor qilish tizimini tashkil etish zarur.

3. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha ish olib boruvchi sug'urta kompaniyalari sonining etishmasligi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini sug'urta qiladigan yirik kompaniyalar kam. Mavjudlari faqat qishloq xo'jaligiga taqdim etilgan kreditlar qaytmasligi sug'urtasi bilangina shug'ullanadi. Davlat raqobatni kuchaytirish uchun qonunchilikka o'zgartishlar kiritishi va qishloq xo'jaligi sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etishi zarur.

4. Sug'urta infratuzilmasining rivojlanmaganligi. Sug'urta samarali bo'lishi uchun maxsus laboratoriyalar, baholash markazlari va ekspertiza tizimi zarur. O'zbekistonda bunday markazlar mavjud emas, bu esa sug'urta xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Qishloq xo'jaligidagi firibgarlik darajasining yuqoriligi. Ayrim fermerlar yolg'on hujjatlar orqali sug'urta to'lovlari olishga urinadilar. Bu holat sug'urta kompaniyalarini ehtiyotkorlikka va ayrim hududlarda faoliyatni to'xtatishga majbur qiladi yoki aksincha yuz bergan sug'urta hodisalarini bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaslik yoki paysalga solish holatlari fermerlarda sug'urtaga bo'lgan ishonchni pasaytirmoqda. Davlat bu borada sug'urta tashkilotlari nazoratini kuchaytirishi lozim.

6. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq xatarlarni sug'urtalash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 6 oktyabrda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida belgilangan sug'urta sohasidagi imtiyozlar amalda qo'llanilmayapti. 2025 yil 14 aprelda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan qishloq xo'jaligini sug'urtalash jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi talab hozirgacha amalga oshirilmadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarning hal etilishi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasining rivojlanishiga va natijada qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa (Conclusion, Заключение).

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonning agrar sohasi katta hajmi tashkil etib, ushbu sohada sug'urta xizmatlarini talab darajasida yo'lga qo'yilishi bir vaqtning o'zida ikki tomon, ya'ni sug'urta sohasi va qishloq xo'jaligining kengayishi va barqarorligining ta'minlanishiga olib keladi. Sug'urta nafaqat iqlim va tabiiy xavf-xatarlardan himoya vositasi, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun muhim iqtisodiy mexanizmdir. Ammo bu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun agrar ishlab chiqaruvchilarning xabardorligini oshirish, raqobatni kuchaytirish, infratuzilmani yaxshilash, ushbu yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalarini rag'batlantirish hamda firibgarliklarga qarshi kurashishni tizimli amalga oshirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Alimov, M. (2020). Qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Toshkent: TMI nashriyoti.
2. Abdurashidov, N. (2019). O'zbekistonda qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari. — "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" jurnali, №3.
3. Hazell, P. & Varangis, P. (2018). Agricultural insurance in developing countries: The role of governments and markets. World Bank Research Working Paper.
4. Mahul, O. & Stutley, C. J. (2010). Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries. Washington, DC: The World Bank.
5. OECD (2021). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2021: Addressing the Challenges Facing Food Systems. OECD Publishing, Paris.
6. Gong, B., Xu, H., & Zhang, L. (2020). Public-private partnership models in agricultural insurance: Evidence from China and Turkey. *Journal of Agricultural Economics*, 71(4), 921–936.
7. UNDP.org — United Nations Development Programme (Geneva Office, 2024)
8. Kursiv Media (Uzbek edition) — "Uzbekistan implements agricultural risk insurance", 2024 йил 27 ноябрь
9. Uzdaily.uz — "Uzbekistan passes draft law on agricultural risk insurance"..